

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.A.Mamajonov</b> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati .....	545
<b>B.A.Pulatov</b> Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari .....	548
<b>K.I.Marayimova</b> Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
<b>N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva</b> Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari .....	557
<b>D.I.Asqarova</b> Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari .....	561
<b>M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari .....	569
<b>M.Q.Jabborova</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari .....	572

---

FALSAFA

<b>A.A.A.Qambarov</b> "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari .....	579
<b>I.M.Arzimatova</b> Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rni .....	583
<b>D.E.Normatova</b> Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati .....	588
<b>I.A.Asatulloev</b> Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m a'naviy hayotining qiyosiy tahlili .....	593
<b>T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov</b> Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari .....	597
<b>S.S.Evatov</b> Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'rni .....	602
<b>I.Y.Toirov</b> Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari .....	606
<b>A.M.Rasulov</b> Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili .....	610
<b>A.A.Sayitxonov</b> Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rni .....	614
<b>F.A.Yuldashev</b> Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests .....	618
<b>S.P.Tojiboyev</b> Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili .....	625
<b>B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov</b> Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari .....	631
<b>M.A.Abduxamidov</b> Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili .....	635

---

SIYOSAT

<b>J.A.Dadaboyeva</b> Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari .....	638
<b>A.A. G'aniyev</b> Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati .....	643

---

TARIX

<b>B.A.Usmonov</b> "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir .....	648
--	-----



UO'K: 520

## SOVETLARNING O'ZBEKISTONDAGI MASJIDLARGA MUNOSABATINING TAHLILI

## ANALYSIS OF THE ATTITUDE OF THE SOVIETS TO MOSQUES IN UZBEKISTAN

## АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЯ СОВЕТОВ К МЕЧЕТЯМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Abduxamidov Muxammadjon Abduxalim o'g'li Farg'ona davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida dotsenti  
Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori**Annotatsiya**

Maqolada sobiq Sovet hokimiyatining O'zbekistonda islom dini va masjidlar faoliyatiga oid ikki yoqlama siyosati arxiv materiallari asosida tizimli tahlil etilgan. Mazkur sohaga oid qabul qilingan qonun va qarorlari, keskin choralarini yoritilgan.

**Аннотация**

В статье на основе архивных материалов системно анализируется двухсторонняя политика Советского правительства в вопросах религии ислама в Узбекистане и мечетей. Освещены все принятые законы и решения, проводимые мероприятия по данному вопросу.

**Abstract**

In the article the author analyses the Soviet government's double-sided policy in Islam and masjids, laws and decrees on this sphere attracting archive materials.

**Kalit so'zlar:** II jahon urushi, Diniy boshqarma, Diniy ishlar kengashi, cheklangan erkinliklar, ibodatxona, ziyoratgoh, ruhoni.

**Ключевые слова:** вторая мировая война, Религиозное управление, Совет по религиозным делам, храм, святое место, религиозные лица, ограниченная свобода.

**Key words:** World War II, Religious department, council of religious affairs, restricted freedom, place of worship, pilgrimage and clergyman.

**KIRISH**

Jamiyat hayotini diniy munosabatlardan ayri holda tasavvur qilib bo'lmagligi ayni haqiqat. Lekin, tarixning dalolat berishicha, turli davrlarda diniy e'tiqodga turlicha munosabatda bo'lingan. Bu esa mazkur haqiqatni bilmaslik yoki uni tan olmaslik natijasidir. Sovetlar zamonida O'zbekiston musulmonlarining diniy qarashlari, diniy amallarini ado etishlariga bo'lgan munosabatni shu nuqtai nazardan o'rganish, ayniqsa, muhim xulosalarga olib keladi. Ma'lumki, O'zbekiston hududida 1917 yil oktyabr to'ntarishi arafasida 10 mingga yaqin masjidlar faoliyat yuritgan bo'lsa, II jahon urushining dastlabki yillariga kelib har bir viloyatda 2-3 tadangina masjid qolgan, boshqalari esa yopilgan edi.

II jahon urushi ayni kuchaygan 1943 yilga kelib Sovet hukumati islom va boshqa dinlarga qisman erkinlik berishga majbur bo'ldi. Mamlakat barcha xalqlarining ochlik, qahatchilik va boshqa moddiy yetishmovchiliklardan tinka madori qurigan, aza ochilmagan xonadon deyarli qolmagan edi. Bunday sharoitda nafaqat qo'lga qurol olib jang qilayotganlar, balki front ortida zahmat chekayotgan, urushning alamini tortib, joni bo'g'ziga kelgan har bir insonga birinchi navbatda ruhiy madad zarur edi. Mazkur vaziyatda dinning tasalli beruvchilik vazifasini yaxshi anglagan Sovet hukumati dinga cheklangan erkinlik bergan.

**MATERIALLAR VA METODLAR**

Buning natijasida 1943 yil 20 oktyabr Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi – Diniy nazorat tashkil etilgan. Boshqarma raisi – muftiy lavozimiga Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon saylandi [1.22]. Boshqarma masjidlar ochilishi va faoliyatiga rahbarlik qilgan. Respublika hududida diniy nazoratni amalga oshirish, masjidlar va ruhoniylar faoliyatini nazorat qilib turish uchun Respublika Xalq Komissarlari Soveti qoshida Diniy ishlar kengashining vakili lavozimi tashkil qilindi. SSSR hukumati rasman masjidlar ochishga ruxsat bergan bo'lishiga

qaramay, amalda unga sun'iy to'siq va cheklovlar qo'yilgan edi. Masalan, birgina masjid ochish uchun O'zSSR XKS tavsiyasi va SSSR XKS qarori talab qilinardi, bu esa dindorlarga qiyinchilik tug'dirardi edi. Shu bilan birga shahar yoki rayonda 1 ta masjid bo'lsa 2-sini ochish mumkin emas edi.

1944 yil IV choragidan 1945 yil I choragiga qadar diniy ishlar kengashining O'zbekiston vakiliga masjid ochish to'g'risida 214 ta ariza tushgan. Shulardan 15 tasigina ijobiy hal etilgan, qolganlariga esa rad javobi berilgan edi.

1946 yil 31-dekabrda O'zbekistonda Diniy ishlar kengashi tomonidan ruxsat berilgan 72 ta masjid mavjud bo'lib, ularning aksariyati 1946 yilda ochilgan. Misol uchun, Andijon viloyatidagi 7 ta masjididan 4 tasi, Namangan viloyatidagi 4 ta masjididan 2 tasi, Buxoro viloyatidagi 5 ta masjididan 4 tasi, Qashqadaryo viloyatidagi 6 ta masjididan 5 tasiga aynan shu yildan faoliyat yuritishlariga ruxsat berilgan [3.18-21]. 1947 yil 1-noyabrga kelib Respublikadagi masjidlar soni 90 taga yetgan [4.7]. Masjidlar sonining ko'payishi sababi shundaki, mavjud qoidalarga ko'ra uzoq vaqt davomida ishlayotgan masjidlar davlat ro'yxatiga olinishi shart edi. Respublikada faoliyat yuritgan 90 ta masjididan 29 tasigina Diniy ishlar kengashining ruxsati bilan tashkil etilgan bo'lsa, qolgan 61 tasi uzoq vaqtdan buyon ishlayotganligi sababli ro'yxatga olingan edi. Masjidlar ko'payishidan manfaatdor bo'lmagan Sovet hukumati bu jarayonni to'xtatish chorasini ko'rди. 1947 yil 20-noyabrdagi Diniy ishlar kengashining O'zbekiston bo'yicha vakili o'zining Andijon viloyatida 1-noyabrgacha ro'yxatga olingan ibodatxonalar to'g'risidagi axborotida shunday deb ta'kidlaydi: "Uzoq vaqt ishlayotgan ibodatxonalarni ro'yxatga olish to'xtatildi. Bundan keyin ibodatxonalar faqat SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Diniy ishlar kengashining ruxsati bilangina ro'yxatga olinadi"[4.7].

#### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1953 yil 20-iyundagi "Diniy marosimlar haqidagi Sovet qonunlarini buzish faktlari to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston Moliya vazirligiga noqonuniy faoliyat ko'rsatayotgan ruhoniylarni aniqlash va ularga soliq solish ishini kuchaytirish majburiyati yuklatildi [2.79]. Diniy ishlar kengashining viloyat vakillari esa norasmiy ochilgan masjid imomlari, eshon, shayx, duxon, parixon va boshqalarni ro'yxatini tuzib moliya bo'limlariga topshirdi. Diniy ishlar kengashining O'zbekiston bo'yicha vakili tomonidan 1953 yil 26-avgustda Andijon viloyatidan 138, Namangan viloyatidan 111, Samarqand viloyatidan 50, Buxoro viloyatidan 25, Toshkent viloyatidan 30, Xorazm viloyatidan 16 nafar ruhoniylarning ro'yxati tuzilib Respublika moliya bo'limlariga topshirilgan. Bu kabi choralaridan ruhoniylarni bezitish, ularni diniy ishlardan chetlatish ko'zda tutilgan edi.

1956 yilda birgina Toshkent viloyatining o'zida 74 ta norasmiy faoliyat yuritayotgan masjidlar mavjud edi. 1959 yilda ularning 42 tasi, 1960 yilda esa 15 tasi yopilgan edi [7.7]. Faoliyati tugatilgan masjid binolari kutubxona, medpunkt, pionerlar uyi kabi madaniy-ma'rifiy va xo'jalik tashkilotlariga berilgan. Bu kabi shoshilinch choralar musulmon dindorlari ularni qayta ochib olmasligi uchun o'ylab topilgan edi.

Buxoro viloyatida 1959-1960 yillarda 20 ga yaqin masjid va ziyoratgohlar, jumladan xalq orasida mashhur bo'lgan Bahouddin Naqshband va Abduxoliq G'ijduvoni ziyoratgohlari yopilgan. KPSS Markaziy Komiteti 1960 yil 13-yanvarda "Diniy marosimlar haqidagi Sovet qonunlarini ruhoniylar tomonidan buzilishini tugatish tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. 1960 yil 4-fevraldagi O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komitetining "Diniy marosimlar to'g'risidagi Sovet qonunlarini buzish faktlari to'g'risida"gi qarorida ruhoniylar xizmatchi xodimlarni ortiqcha ko'paytirib yuborgan, ibodatxonalarni kengaytirgan va ta'mirlagan deb, tanqid qilingan. Masalan, Ordjonikidze tumani ijrokomi 1961 yil 20 iyunda "Unqo'rg'on" masjidi mahalliy hokimiyat idoralarning ruxsatisiz 2 ta ayvon qurgan, namoz o'qiladigan maydon sig'imini kengaytirgan deb berkitilgan [8.6].

Partiya organlarining yuqoridagi qarorlari asosida mahalliy partiya sovet idoralari masjidlar, ruhoniylarga qarshi keskin kurash boshladi. Bu qarorlarga qadar cheklangan darajada bo'lsa ham masjidlar ochish davom etayotgan edi. Mazkur qarorlardan keyin Diniy ishlar kengashining ruxsati bilan ochilgan masjidlar ham yopila boshlandi. Diniy ishlar kengashi O'zbekiston bo'yicha vakilining 1962 yil 1-sentyabrdagi ma'lumotiga ko'ra, Sovet idoralarning ruxsati bilan faoliyat yuritayotgan Toshkent shahridagi "Qizil tovush", "Chig'atoy", "Chakir", "Sarichopon", Toshkent viloyatidagi "Xovast", "Qumqo'rg'on", Andijon viloyatidagi "G'oyib berdi", "So'fi domla", Samarqand viloyatidagi "Mitan" masjidlar yopilgan edi [9.83].

Shuningdek, ruxsatsiz yangi masjidlar qurilganligi, rasmiy ishlayotgan masjidlarda esa namoz o'qiydigan yangi xonalar, ayvonlar, idora, mexmonxona va boshqalar qurilgani hamda namoz o'qiydigan maydonni kengaytirilgani kabi bahonalar bilan ham masjidlarni yopish davom etgan.

## FALSAFA

Masalan, 1950 yillar oxirida Toshkent shahrida 2 ta, Toshkent viloyatida 4 ta yangi masjid qurilgani va ular ruxsatsiz ishlayotgani aniqlanib, faoliyati to'xtatilgan.

Toshkent shahrining "Oktyabr" (hozirgi "Shayxontohur") tumanida 1944-1945 yillarda 11 ta ro'yxatga olingan masjidning namoz o'qiydigan maydoni 2141 m. kv. bo'lgan. 1961 yil 1 yanvarda esa ularning maydoni 9347 m. kv.ni tashkil qilgan [6.40]. Bu qurilishlarni dindorlar o'z hisobidan bajarib davlatga zarar yetkazmaganligiga qaramay ularga jazo choralari ko'rildi. Sovet idoralarining ruxsatsiz qo'shimcha bino qurganligi uchun rasmiy masjidlarning ayrimlari buzilgan. Yangi qurilgan, ta'mirlangan norasmiy masjidlar esa ro'yxatdan o'tkazilmagan.

Sovet idoralarining tazyiqi ostida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy nazorati Hay'ati 1961 yil 17-fevralda masjidlarning shtatini qisqartirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Bu qaror asosida viloyatlardagi masjidlarda ruhoniylar va texnik xodimlar soni kamaydi. Diniy nazoratning bergan ma'lumotiga ko'ra, 1960 yil 1 yanvarda Respublika masjidlarida 493 nafar xodimlar ishlagan bo'lsa, 1961 yil 1 iyulga kelib ularning soni 247 nafarni tashkil qilgan. Yani masjid xodimlari ikki barobar qisqartirilgan [5.97]. Bular Sovet organlarining mavjud masjidlar faoliyatini zaiflashtirish va oxir oqibat dini jamiyatdan ajratish yuzasidan choralari edi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytish kerakki, mustabid tuzumning barcha bosqichlarida Sovetlar O'zbekistonda islom diniga, uning tayanchi bo'lgan masjidlariga qarshi kurash olib borgan. Urush va undan keyingi yillarda sharoit talabi bilangina islom va boshqa dinlarga cheklangan darajada erkinliklar berildi. Hukumat xalqning mustabid tuzumga bo'lgan nafratini susaytirish, urushdan tinkasi qurigan odamlarga ruhiy madad berish maqsadida masjidlar, ibodatxonalar ochishga ruxsat bergan bo'lsa, bu jarayonni nazorat qilish va din hamda dindorlarning jamiyat hayotiga ta'sirini kamaytirish uchun turli to'siqlar, bahonalar bilan ularning faoliyatini cheklagan, ba'zilarini esa yopib ularning o'rnida omborxonalar tashkil etgan. Sovetlar islomga qarshi qancha kurashmasin, masjidlarni yopib, dindorlarni ta'qibga olmasin, islom dinini o'zbek xalqining ongidan, qalbidan siqib chiqara olmadi. Sovet mustamlakachiligi, kommunistik mafkura hukmronligi davrida ham o'zbek xalqi Allohni o'z qalbida, yuragida asrab, avaylab keldi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Boboxonov Sh. So'nmas ziyo. – T.: Movarounnahr, 1998
2. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 33-ish.
3. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 83-ish.
4. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 109-ish.
5. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 266-ish.
6. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 268-ish.
7. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 273-ish.
8. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 296-ish.
9. O'zR. Markaziy davlat arxivi, 2456 fond. 1-ro'yxat, 321-ish.